

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLA SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI

Eldorbekova Sojidaxon Islandarbek qizi

International school of finance technology and science instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20921924>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolaning psixologik xususiyatlari va bu yoshdagi bola uchun oila qay darajada rol o'ynashi haqida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, bola shaxs sifatida rivojlanish jarayonida oilaning ta'siri katta ekanligi va ota-ona har bir vaziyatda farzandini fikrini eshita olishi, u ham jamiyatning bir a'zosi sifatida shakllanayotganini hisobga olish kerakligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, bola, ko'nikma, bo'g'in, shaxs, Sharq mutafakkirlari, jamiyat, ijtimoiylashish, inqiroz davri.

РОЛЬ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности ребенка младшего школьного возраста и роль семьи для детей этого возраста. Также подчеркивается, что семья оказывает значительное влияние на процесс развития ребенка как личности, и важно, чтобы родители в каждой ситуации умели выслушивать мнение своего ребенка, учитывая, что он также формируется как член общества.

Ключевые слова: семья, ребенок, навык, поколение, личность, восточные мыслители, общество, социализация, период кризиса.

THE ROLE OF THE FAMILY IN SHAPING THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF A YOUNGER SCHOOLCHILD

Abstract: This article examines the psychological characteristics of a younger school child and the role of the family for children of this age. It is also emphasized that the family has a significant impact on the child's development as a person, and it is important for parents to be able to listen to their child's opinion in each situation, taking into account that they are also being formed as a member of society.

Keywords: family, child, skill, generation, personality, Eastern thinkers, society, socialization, period of crisis.

Hozirgi kunda bolaning kelajakda o'z o'rnini topishga bo'lgan munosabati, ijtimoiylashish jarayoni, individual qobiliyatlarining vujudga kelishi va barkamol inson sifatida voyaga yetishi muqaddas maskan bo'lmish oilada shakllanishi muhimdir. Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruh hisoblanadi.[5] Oila jamiyat hayotining chambarchas bo'g'ini, negizi hamdir. Bundan tashqari oilada, ayniqsa o'zbek oilasida bolani tarbiyalash jarayonida asrlardan meros qolgan tarbiya usullaridan, Islom ta'limoti, hadis va oyatlardan foydalaniladi va albatta bu jarayonlar bobolar o'giti, buvilar nasihati, ota ibrat, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida oila to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Bolaning tarbiyasi va uning yetuk shaxs sifatida shakllanishida oilaning roli nihoyatda kattadir. Oilada bolaning aqliy faoliyati kamol topadi, dunyoqarashi, tafakkuri shakllanadi, kishilarga nisbatan mehr-oqibat hissi

tarbiyalanadi. Bolaning bilimi, qobiliyati va malakalarining shakllanishi aynan oila va oilaviy tarbiyaga bog'liqdir".[4] Prezidentimizning ushbu fikrlari jamiyat hayotimizda farzand tarbiyasida jarayonida oilaning o'rni naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar 7 yoshdan 11-12 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu davrning boshida ya'ni 6-7 inqiroz yoshlarida bolada tishlarning almashishi, yuz qiyofasining o'zgarishi, kattalar tomonidan ko'p maqtovlarga moyil bo'lishi, tanasining tez o'sishi, mushaklarining quvvatga to'lishi va ijtimoiy munosabatlarda o'z o'rnini topishga harakat qilishi kuzatiladi. Biroq bolada hissiyotlarni boshqarish qobiliyati rivojlanmagan bo'ladi. Bu davrda bolani boshqarish birmuncha qiyin bo'lib qoladi. Mazkur davrda eng asosiy narsa bu – hurmat. Agar mazkur ehtiyoj qondirilmasa, bola o'rtasidagi tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, ota-onasining odatiy buyruq va talablari bilan hisoblashib, muhokama qila boshlaydi, ayyorlik, o'jarlikka moyil bo'ladi. Tez-tez "nima uchun?", "qanday?", "nega?" degan savollarni bera boshlaydi. Mazkur yosh samimiylilikning yo'qolishi bilan ham xarakterli bo'lib, bu bolaning har bir xatti-harakatiga ehtiyotkorlik va bosiqlik, sabr-toqat bilan javob berish lozimligini anglatadi.[6]. Shuning uchun oilada ota-onalar bolaning bu davrini hisobga olgan holda muomalada bo'lishi kerak. Oila haqida Sharq mutaffakirlarimiz va "Avesto" da ham bir qancha ma'lumotlar berilgan. Sharq mutaffakirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar — halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarini barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar. Zardushtiylikning qadimiy kitobi — «Avesto» da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi nimalarga bog'liq ekanligi haqida esa: «Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz-ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil muhtaramdir», — deb yozilgan. Bu kitobda ko'rsatilishicha, oilada ota yetakchi bo'lgani ma'qul. Shuningdek, unda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo'lgan.[2] Bulardan tashqari bir qancha psixologlar ham oila bola hayotida qanchalik ahamiyatli ekani haqida bir qator ma'lumotlar keltirib o'tishgan. Psixolog olim V.I. Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchni, hamjihatlikni hamda ota va onalarning bolalariga g'amxo'rlikning samarasidir degan xulosaga keladi. Oiladagi munosabatlarning buzilishi, bolaning psixologik rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bolaning sog'lom oila muhitda ulg'ayishi va munosabatlardagi erkinlik uning kelajakda jamiyatga tezroq ijtimoiylashishiga va yaxshi moslashishiga yordam beradi.[4] Aytib o'tdik, kichik maktab yoshidagi bola boshlang'ich sinf o'quvchisi hisoblanadi deb. Bu davrda ta'lim-tarbiya jarayonini berib borish, individual xususiyatlarini qobiliyatlarini shakllantirish, ijtimoiylashtirish jarayoni uchun poydevor hamdir. Bola bu jarayonlarni amalga oshirish uchun oilada ota-onaning zimmasida ulkan vazifa yotadi va bolaning hayotida ota-ona go'zal xulqi, tarbiyasi orqali o'rnak bo'la oladi. Masalan, odatda, onalar bolalarini gaplariga kirgiza olmaslar, aldasha o'tadilar. Biror narsa berish va'dasi

ila aldab, ushlab olib, kaltaklashga tushadilar. Aslida esa, shu ishlari bilan bolalarining tarbiyasiga zarar yetkazayotgan, ularga yomon namuna ko'rsatayotgan bo'ladilar. Har bir bola uchun uning ota-onasi dunyodagi eng ulug' kishilar bo'ladi. Bola ota-onasiga taqlid qiladi va ulardan o'rnak oladi. Ana o'sha bolaning nazaridagi eng ulug' va o'rnak olishga sazovor inson uni aldagandan keyin, bolada, men ham shunday qilsam bo'lar ekan, degan tushuncha paydo bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham ota-ona bolalariga doimo yaxshi va go'zal o'rnak bo'lishlari lozim. Barcha yaxshi sifatlarni namoyish qilib, barcha yomon sifatlardan uzoqda bo'lishlari kerak. Ota-ona bolalariga shaxsiy namuna ko'rsatishlari bilan birga, ularga odoblarni qunt bilan, zerikmasdan o'rgatib borishlari zarur. Chunki ota-onaning bolalarga beradigan narsalari ichida eng qimmatlisi va zaruriysi odobdir.[1] Yuqorida bola bu davrda qilgan ishlari uchun kattalar tomonidan maqtov eshitishga o'ch boladi deb aytib o'tdik. Albatta, boladan yaxshi xulq va maqtovga sazovor ish sodir bo'lsa, uni taqdirlash va xursand bo'ladigan narsa ila mukofotlash hamda odamlar huzurida maqtash lozim. Ba'zi holatlarda mazkur ishlarga xilof narsani sodir qilsa, o'zini bilmaganga solib, uning aybini oshkor qilmaslik kerak. Agar o'sha noma'qul narsani yana qaytadan qilsa, hech kimga bildirmay, jazolash va odamlar bilib qolsa, uyat qilishlarini uqtirish lozim. Ammo, jazo ko'paytirib yuborilmasin. Chunki bu narsa bolaning betini qotirib qo'yadi. Keyin uyalmay, har narsani qilishga odatlanib qoladi. Ota bolasining huzurida o'z haybatini saqlab turishi kerak. Ota-ona tomonidan kunduzi va bevaqt uxlashga odatlantirmaslik kerak. Bunda u dangasalikka o'rganib qoladi. Yotar joyi ham yumshoq bo'lmagani yaxshi.[1] Bola bu davrda maktabda sinfdoshining yoki ko'chadagi tengdoshining biror narsasiga havasi kelib qiziqishi yoki o'g'irlab olmoqchi bo'lishi mumkin. Bunda ota-ona boshqa bolalarning narsasini tortib olmaslik yoki o'g'irlamaslik kerakligi va bu pastkashlik hisoblanishi haqida ham uqtirishi lozim. Bulardan tashqari bolani bu davrda ham tarbiyaning barcha turlarini, mehnat, jismoniy, aqliy, ma'naviy, etik, estetik tarbiyalari shu jumladan gigiyenik tarbiyalarni ham berib borish lozim. Aynan shu davrda bolaning umurtqa pog'onalari uncha qotmagan va energiyasi to'lib toshgan davr hisoblanadi. Bolani ko'proq piyoda yurishga o'rgatish, shu orqali bolani dangasalik xususiyatini yo'q qilish va individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda biror sport to'garaklariga berish lozim. Shu orqali bolani kichik maktab chog'idan sog'lom turmush tarziga yo'naltiriladi va unda tirishqoqlik xususiyati shakllanadi, baquvvat bo'lib kamol topa boshlaydi. Mehnat tarbiyasini bolaga kiyimini taxlab qo'yishi, idish tovoqlarni tashishga yordamlashish va shu kabi uydagi mayda ishlar ota-ona yoki bobo-buvi tomonida buyuriladi va bu ko'nikmalar shakllanib mehnatga muhabbat uyg'otiladi. Shu orqali bolada mehnatsevarlik, ishning ko'zini bilish, tashabbuskorlik, kirishimli bo'lish kabi xususiyatlarni shakllanishiga yordam beradi. Mehnat tarbiyasi shakllangani sayin bola maktabdagi vazifalar: she'r yodlash, o'qish, yozish, ma'lumotlarni o'zlashtira olish ko'nikmalarini oson qila oladi. Ma'naviy tarbiyani bolaga bu davrida ajdodlari haqida ma'lumotlar berish, turli xil muzeylarga olib borish orqali bolada shakllantirish mumkin. Xo'sh, bolani shakllantirish mumkin bo'lgan jarayonlar bilan tanishdik. Endi eng asosiy jarayonlardan biriga o'tsak. Bu oiladagi sog'lom muhit hisoblanadi. Oilada sog'lom muhit bo'lmasa, bu barcha aytilgan gaplar puchga chiqadi. Oila muhiti - bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarining yig'indisi va nihoyat kattalarning bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir.[3] Oiladagi sog'lom muhit deganda oila a'zolaridagi barcha fikr bildira olishi (ayniqsa oilaviy qarorlarda), muammo bo'lsa birgalikda hal qila olishga aytiladi. Agar iloji bo'lsa ota-ona o'rtasida muammo va kelishmovchilik bo'lsa, o'zaro farzandiga bildirmay, hech qanday urushlarsiz

hal etish lozim. Chunki bu bolaga albatta salbiy ta'sir o'tkazadi. Sog'lom muhit deganda, oila a'zolari oilaviy qarorlarda fikrini bildirib olishi deb aytib o'tdim. Xo'sh, kichik maktab yoshidagi bola ham oilaviy qarorlarga fikr bildirib oladimi? Albatta, oila – bu kichik bir jamiyat, va har bir jamiyatda har kimning fikri muhim. Shuning uchun oilada ham barcha a'zolar, shu jumladan farzandlar, o'z fikrlarini bildirish imkoniga ega bo'lishlari kerak. Ba'zida ota-onalar farzandlarining fikrlarini e'tiborsiz qoldiradilar yoki ular o'rniga qaror chiqaradilar. Bu esa bolalarning o'z mustaqil fikrini shakllantirishga, kelajakda o'z hayotiga mas'uliyatni his qilishlariga to'sqinlik qilishi mumkin. Chunki o'z fikrini bildirishga odatlanmagan bola, kattaroq yoshga yetganda ham o'z hayotiga oid qarorlarni mustaqil qabul qilishga qiynaladi. Oddiy bir misol keltirish mumkin: bola oilaviy ovqatlanishda 10 xil taom orasidan o'ziga mos bitta taomni tanlay olmasa, u qanday qilib hayotning katta qarorlarini qabul qilishga tayyor bo'ladi? O'z fikrini bildirish imkonidan mahrum bo'lgan bola kattaroq muhim masalalarda ham noaniq va ishonchsiz bo'lib qolishi mumkin. Farzandlarning mustaqil qaror qabul qilishlari ota-onaga hurmatsizlikni anglatmaydi. Aksincha, bu oiladagi ishonch va hurmatni yanada kuchaytirishi mumkin. Ota-onalar farzandlariga maslahat berib, ularning fikrlarini to'g'ri yo'naltirishlari kerak. Lekin ota-onalar bu jarayonda farzandlari uchun qaror chiqarib bermasliklari lozim. Farzand o'z tanlovini amalga oshirar yekan, u ota-onasining maslahatlariga, qadriyatlariga va tarbiyasiga asoslangan holda harakat qiladi. Shuningdek, ota-onalar o'z farzandlariga din, milliy qadriyatlar va oila ahamiyatini to'g'ri tushuntirishlari zarur. O'z oilasiga, diniga va qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan farzand hech qachon ota-onasini behurmat qilmaydi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bolaning bu davri tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun, jamiyatning kerakligi a'zosi sifatida shakllanishi uchun ham mustahkam poydevor hisoblanadi. Bolaning bu davrida ota-ona bolaning fikrini eshita olsa, uni ham jamiyatning bir qismi sifatida ko'ra olsa, avvalo ota-ona har qanday vaziyatda bolaning hayotida o'rnak bo'la olsa undan keyingi davrlarda muammolarga duch kelinmaydi. Bundan tashqari, oilaviy qarorlar qabul qilish jarayonida farzandlarning fikrlarini inobatga olish ularga mustaqil va mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishish imkonini beradi. Bunda ota-onalar farzandlari bilan muloqot qilib, ularga kerakli yo'nalish berib turishlari kerak, lekin ular uchun qaror chiqarib bermasliklari muhimdir. Shunday oilalarda o'z fikrini bildirgan va mustaqil qaror qabul qilgan farzandlar o'z kelajaklarini muvaffaqiyatli qura oladilar.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Baxtiyor oila"-Hilol-Nashr-2016.
2. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'l. / G. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog'inov va boshq.; G'. B. Shoumarovning tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: «Sharq», 2010. — 296 b.
3. <https://scientists.uz/uploads/202205/B-43.pdf>
4. <https://jdpu.uz/oilada-ota-ona-hamda-farzandlar-ortasidagi-nizolar-va-ularning-yechimlari/>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>
6. <https://farzand.uz/uz/post/7-yoshgacha-bolalarda-o-tish-davri-inqirozlari>